



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **O‘QUVCHILARNING O‘QUV JARAYONI MUVAFFAQIYATIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘RNI VA TAHLILI**

**Karakulova Umida Abduvakilovna**

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, assistenti

### **Annotatsiya**

Maqolada emotsional intellekt fenomeni zamonaviy psixologiya fanining asosiy yondashuvlari doirasida tahlil qilinadi. Emotsional intellektning kognitiv intellektdan fundamental farqlari, uning asosiy komponentlari, o‘rganilishi va rivojlantirilishi mumkinligi nazariy va empirik jihatdan ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** emotsional intellekt, psixologik yondashuvlar, Mayer-Salovey modeli, Goleman modeli, Bar-On modeli, empatiya, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar, oliy ta’lim, talabalar psixologiyasi, zamonaviy psixologiya.

## **РОЛЬ И АНАЛИЗ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСПЕВАЕМОСТИ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ**

**Каракулова Умида Абдувакиловна**

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана, ассистент

### **Аннотация**

В статье анализируется феномен эмоционального интеллекта в рамках основных подходов современной психологии. Теоретически и эмпирически рассматриваются фундаментальные различия эмоционального интеллекта от когнитивного интеллекта, его основные компоненты, возможности его изучения и развития.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект, психологические подходы, модель Майера-Саловея, модель Големана, модель Бар-Она, эмпатия, самоконтроль, социальные навыки, высшее образование, студенческая психология, современная психология.

## **THE ROLE AND ANALYSIS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN STUDENTS' ACADEMIC SUCCESS WITHIN THE LEARNING PROCESS**

**Karakulova Umida Abduvakilovna**

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan, Assistant

### **Abstract**

The article analyzes the phenomenon of emotional intelligence within the framework of the main approaches of modern psychology. The fundamental differences of emotional intelligence from cognitive intelligence, its main components, the possibility of its study and development are considered theoretically and empirically.

**Keywords:** emotional intelligence, psychological approaches, Mayer-Salovey model, Goleman model, Bar-On model, empathy, self-management, social skills, higher education, student psychology, modern psychology.

Emotsional intellekt — insonning o‘z his-tuyg‘ularini va atrofdagilarning hissiy holatini sezish, ularni farqlash hamda o‘z xatti-harakatlarida ushbu farqlarni inobatga olish qobiliyatidir [1]. Ushbu intellekt asosan tug‘ma xususiyat emas, balki kognitiv intellektdan (IQ) farqli ravishda kontekst va tajribaga qarab moslashuvchan hamda takomillashuvchan xususiyatga ega. Bar-On qarashiga ko‘ra, emotsional-ijtimoiy intellekt — bu o‘z his-tuyg‘ularini samarali va izchil ifoda

etish, mavjud talablar va muammolarni eng maqbul tarzda hal qilish, atrofdagilar bilan samarali aloqada bo'lish, hayotdagi qiyin va tanqidiy vaziyatlarni anglash hamda boshqarish qobiliyatidir. Shundan kelib chiqadiki, ushbu faoliyatlar va shaxslararo munosabatlarni boshqarish uchun avvalo inson o'zini yaxshi bilishi, kuchli tomonlarini aniqlab, ularni raqobatbardosh ustunlik sifatida ishlata olishi, zaif tomonlarini esa yashirish yoki kuchli tomonga aylantirishni bilishi zarur.

Xususan, emotsional intellekt ikki asosiy qismdan iborat: **shaxsiy kompetensiya** va **ijtimoiy kompetensiya**. Shaxsiy kompetensiya, o'z navbatida, **o'zini o'zi anglash** (*self-awareness*) va **o'zini o'zi boshqarish** (*self-control*)dan tashkil topadi.

O'zini o'zi anglash — inqiroz yoki qiyin vaziyatda o'z his-tuyg'ularini sezish, ularni to'g'ri tushunish va ustalik bilan boshqarish qobiliyatidir. O'zini o'zi boshqarish esa o'z his-tuyg'ularini cheklangan vaziyatlarda yoki muayyan shaxslar bilan muloqot jarayonida samarali nazorat qila bilishdan iboratdir.

Ijtimoiy kompetensiya esa ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: **ijtimoiy sezuvchanlik** (*social awareness*) va **munosabatlarni boshqarish** (*relationship management*). Ijtimoiy sezuvchanlik — boshqalarning his-tuyg'ularini sezish, tinglash va ularning muammolarni hal qilish usullarini kuzatish orqali vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatidir. Munosabatlarni boshqarish esa yuqoridagi uchala komponentni — o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy sezuvchanlikni — birlashtirgan holda shaxslararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishdan iborat [2].

Hissiy intellektni o'rganish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimida hamda jamiyatda psixologik barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Hissiy intellektning rivojlanishi, ayniqsa, o'smirlilik davrida nihoyatda muhimdir. O'smirlilik yoshida insonning hissiy olami keskin murakkablashadi: o'zini o'zi anglash jarayoni chuqurlashadi, ijtimoiy munosabatlar murakkablashadi va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati shakllanadi [3].

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

V.P. Zinchenko ta'kidlashicha, o'smirlilik davrida hissiy aqlning rivojlanishi, ya'ni his-tuyg'ularni boshqarish, o'zini o'zi nazorat qilish va xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solish darajasining oshishi ta'lim faoliyati hamda kommunikativ ko'nikmalarning muvaffaqiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. U "affekt va intellekt o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish zarur", deb ta'kidlaydi, chunki affektsiz talaba bilimni to'liq o'zlashtira olmaydi. Affekt harakat bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki ularni tushunish va qayta ishlashga ham yordam beradi. Emotsional intellekt hodisasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tan olingan bo'lib, hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatni ta'minlash uchun uning tarkibiy komponentlarini rivojlantirish zarurligi va ahamiyati umumiy qabul qilingan [4].

D.I. Feldshteyn ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda "bolalar, jumladan, o'smirlar o'rtasida tengdoshlari bilan muloqotning yomonlashishi va cheklanishi" kuzatilmoqda, natijada rad etilish holatlari va kommunikativ ko'nikmalarning pasayishi yuz bermoqda. Shu bois o'smirlarning o'quv faoliyatida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko'rilmogda [5].

Kompyuterlashtirish sharoitida yashayotgan zamonaviy yoshlar uchun virtual muloqot ko'pincha real aloqalarning yetishmasligiga va qo'rquv hissining kuchayishiga sabab bo'ladi. His-tuyg'ularni anglash va muloqot qobiliyatining yetishmasligi o'ziga xos tarzda tarbiyalanish imkoniyatining pasayishiga hamda qo'rquvni boshqara olmaslikka olib keladi. Bularning barchasi hissiy intellektning past darajasiga sabab bo'ladi. E.I. Tereshchukning fikricha, bu holat aleksitimiyaga moyillikni kuchaytiradi, ya'ni his-tuyg'ularni aniqlash va farqlashdagi, tana sezgilarini talqin etishdagi muammolarni, ramziy ma'noda ifodalash qobiliyatining pasayishini va boshqa shunga o'xshash holatlarni yuzaga keltiradi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida va psixologik-pedagogik amaliyotda emotsional

intellektni rivojlantirish hamda hissiy sohani mustahkamlash masalasi nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ham ega bo'lib qolmoqda. Hissiy intellektni shakllantirish nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatni ta'minlaydi, balki jamiyatning umumiy psixologik barqarorligini ham oshiradi [7].

### **Tahlil va natijalar**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi emotsional intellekt va ta'lim motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda maktab yoshidagi o'quvchilarda ushbu ikki psixologik xususiyatning o'zaro ta'sirini o'rganishdan iborat. Shu maqsadda ta'lim motivatsiyasini diagnostika qilish metodikasi (A.A. Rean va V.A. Yakunin tomonidan ishlab chiqilgan, N.S. Badmaeva tomonidan modifikatsiya qilingan) qo'llanildi. Metodika o'quv motivatsiyasining ichki va tashqi komponentlarini o'lchaydigan 7 ta shkala (subshkala)dan iborat bo'lib, har bir shkala bo'yicha ballar hisoblandi.

#### **Jadval 1**

##### **Olingan metodika natijalarining tavsiflovchi statistikasi**

Shkala	Min	Max	O'rtacha	Standart og'ish
Ichki motivatsiya	12	28	21,45	3,87
Tashqi ijobiy motivatsiya	9	25	18,72	4,12
Tashqi salbiy motivatsiya	8	24	15,63	3,95
O'quv jarayoniga qiziqish	11	27	19,84	4,05
Natijaga qiziqish	10	26	17,91	3,76
O'z-o'zini baholash motivatsiyasi	13	29	22,13	3,68
Ijtimoiy ma'qullash motivatsiyasi	7	23	14,82	4,21
Umumiy motivatsiya darajasi	85	142	118,67	12,45

#### **Jadval 2**

##### **Olingan metodika natijalarining Kolmogorov–Smirnov mezonini bo'yicha natijalari**

Shkala	K-S statistikasi	p-qiyamati
Ichki motivatsiya	1,124	$p > 0,05$
Tashqi ijobiy motivatsiya	0,987	$p > 0,05$
Tashqi salbiy motivatsiya	1,256	$p > 0,05$
O'quv jarayoniga qiziqish	0,934	$p > 0,05$
Natijaga qiziqish	1,089	$p > 0,05$
O'z-o'zini baholash motivatsiyasi	1,012	$p > 0,05$
Ijtimoiy ma'qullash motivatsiyasi	1,347	$p > 0,05$
Umumiy motivatsiya darajasi	0,876	$p > 0,05$

#### **Jadval 3**

##### **Olingan metodika natijalarining Mann–Whitney U mezonini bo'yicha guruhli tahlili**

Shkala	Qizlar	O'g'illar	U statistikasi	p-qiyamati
Ichki motivatsiya	22,8	20,1	1245	$p < 0,05$
Tashqi ijobiy motivatsiya	19,4	18,0	1387	$p > 0,05$
Tashqi salbiy motivatsiya	14,9	16,4	1123	$p < 0,05$
O'quv jarayoniga qiziqish	21,2	18,5	1198	$p < 0,05$
Natijaga qiziqish	18,7	17,1	1456	$p > 0,05$
O'z-o'zini baholash motivatsiyasi	23,4	20,8	1089	$p < 0,05$
Ijtimoiy ma'qullash motivatsiyasi	13,6	16,1	1154	$p < 0,05$
Umumiy motivatsiya	124,5	112,8	1076	$p < 0,01$

### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim motivatsiyasining ichki komponentlari — ichki motivatsiya, o'quv jarayoniga qiziqish va o'z-o'zini baholash motivatsiyasi — qizlarda

statistik jihatdan yuqori bo'lgan. Aksincha, tashqi salbiy motivatsiya va ijtimoiy ma'qullash motivatsiyasi o'g'illarda yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Umumiy motivatsiya darajasi bo'yicha ham qizlar o'g'illarga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija ko'rsatdi ( $p < 0,01$ ).

Barcha shkalalar bo'yicha Kolmogorov–Smirnov testi natijalariga ko'ra, taqsimlanishning normal ekanligi tasdiqlandi, bu esa guruhlararo solishtirish uchun ishonchli asos yaratdi.

Natijalar emotsional intellekt va ta'lim motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Qizlarda ichki motivatsiyaning ustunligi va o'g'illarda tashqi, ayniqsa salbiy motivatsiyaning yuqoriligi kelgusida gender farqlarini hisobga olgan holda psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, emotsional intellekt shaxsning kognitiv-ijtimoiy samaradorligini ta'minlovchi murakkab tizim sifatida baholanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellektning yuqori darajasi psixologik salomatlik, kasbiy muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvchanlikning muhim omili hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nica E., Sabie O. M. Universitet talabalari orasida hissiy intellekt va akademik yutuqlar: davlat boshqaruvi yo'nalishi misolida // Review of Applied Social Sciences. — 2023. — 4-jild, 2-son. — B. 18–36. — DOI: 10.31902/ras.2023.
2. Kochetova Yu. A. Katta yoshli o'smirlarning hissiy intellekti: monografiya. — Moskva, 2021.
3. Tixomirov O. K. Tafakkur psixologiyasi: oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. — 3-nashr. — Moskva: Akademiya, 2007. — 287 b. — ISBN: 978-5-7695-3674-8.
4. Velichkovskiy B. M. Zamonaviy kognitiv psixologiya. — Moskva: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1982. — 336 b.
5. Lyusin D. V., Ushakov D. V. (tahr.) Ijtimoiy va hissiy intellekt: jarayonlardan o'lehovlargacha. — Moskva: Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti, 2009. — 349 b. — ISBN: 978-5-9270-0153-8.